

Axborotnoma O'zbekiston 01/2022

14 aprel 2022 yil



"Fermerlar uchun biznes o'yini" - yangi o'quv dasturi

O'zbekiston - Markaziy Osiyoda ushbu o'quv modulini joriy etgan birinchi davlat

German Sparkassenstiftung tashkiloti tomonidan yaratilgan Business Game innovatsion va interfaol ta'lim tajribasi borasida xalqaro brendga aylandi. Taktil va kompyuter simulyatsiyalarida moliya, qishloq xo'jaligi, iqtisodiy va tadbirkorlik sohaslarida fundamental bilimlarga ega bo'ladilar, bu odatiy nazariy usuldan farq qiladigan yangi usul hisoblanadi. Loyihalarimiz amalga oshirilayotgan dunyo mamlakatlarida biznes o'yinlari joriy etilganidan so'ng, sohaga talabning oshishi va uning ulkan muvaffaqiyatlari kuzatilmoqda.

Loyihaning so'nggi uch yillik faoliyati natijasida „Savings Game“ va “Micro Business Game” joriy etilgan bo'lsa, endilikda O'zbekistonda **Farmers Business Game** taqdimoti bo'lib o'tdi!



30-mart kuni Hyatt Regency Hotelning anjumanlar zallarida Farmers Business Gamening tantanali taqdimoti bo'ldi. Ushbu tadbirda loyihamizning barcha hamkorlari, trenerlar va jamoatchilikka Business Game taqdim etish uchun Germaniyadan hamkasblar Toshkentga tashrif buyurishdi.

O'zbekistondagi vakilimiz Mathias Wanglarning kirish nutqidan so'ng, Bonn shahri-dagi bosh ofis vakili Business Game koordinatori Elena Thie Fermerlar biznes o'yinining yaratilish jarayoni va konsepsiyasini taqdim etdi.



Bu taqdimotni tajribali-trenerlar Susanna Shuster va Stefan Bunte davom ettirib, German Sparkassenstiftung loyahasida ishtirok etayotgan boshqa mamlakatlarda Farmers Business Gamening o'tkazish bo'yicha ijobiy tajribalari haqida gapirdilar. Tadbir tushlik va kofe bilan muvaffaqiyatli yakunlandi, unda ishtirokchilar fermerlar uchun biznes o'yinlari sohasida kelgusidagi hamkorlik va bu faoliyat orqali erishish mumkin bo'lgan sinergiya haqida fikr almashdilar.

Mehmonlar Stefan Bunte, Syuzan Shuster va Elena Tielarning taqdimotlarini tinglashdi (chapdan o'ngga)

O'quv dasturimizni joylarda kengaytirish


Taqdimotdan so'ng, tajribali-trenerlar Stefan Bunte va Syuzan Shuster Toshkentda ikki hafta davomida, trenerlar uchun treningni (ToT) o'tkazishdi. Yangi trenerlar o'z agrobiznesini yuritmoqchi bo'lgan yosh fermerlar uchun kelajakda Business Game qanday o'tkazish bo'yicha o'qitildi. 10 kunlik qizg'in mashg'ulotlar yakunida treningda qatnashgan barcha 20 nafar ishtirokchi o'quv kursini muvaffaqiyatli yakunlashdi. Ular Biznes o'yinini O'zbekistonning Toshkent, Jizzax, Samarqand viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida o'qitadigan birinchi trenerlarimiz bo'lishadi. Shu munosabat bilan ularni muvaffaqiyatlari bilan yana bir bor tabriklaymiz.



German Sparkassenstiftung O'zbekistonda hozirgi vaqtda qanday biznes o'yinlarini taklif qilmoqda?


▲ Savings Game

Guruhlarda ishtirokchilar besh kishidan iborat oila rolini bajaradilar, oilaviy byudjetni boshqaradilar. Har bir oila guruhi oilaning oldindan belgilangan maqsadiga erishish uchun o'z byudjetidan imkon qadar samarali foydalanishga harakat qiladi. Ushbu o'yin davomida ishtirokchilar byudjetni rejalashtirishning afzalliklari haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladilar va jamg'arma jarayoniga xos imkoniyatlarni tushunib oladilar.




▲ Micro Business Game

Ishtirokchilar kichik meva do'konining menejeri rolini o'z zimmlariga oladilar. Trening davomida ular o'z guruglarini tuzadilar va o'sish imkoniyatlari, ish beruvchining muammolari, tahdidlar va biznes imkoniyatlari kabi turli vaziyatlarga duch kelishadi. Mazkur o'yin shaklidagi treningda ishtirokchilar biznes jarayonlarini yaxshiroq tushunib olib, o'z korxonalarini qanday boshqarishni o'rganadilar.



▲ Farmers Business Game

O'yinning asosiy maqsadi moliyaviy savodxonlikni oshirish va amaliy yondashuv orqali moliyaviy rejalashtirishning ahamiyati haqida xabardorlikni oshirishdir. Ishtirokchilar kichik guruhlarga bo'linib, har bir guruh fermer xo'jaligiga rahbarlik rolini o'z zimmasiga oladi, boshqaruv qarorini qabul qiladi va fermer xo'jaligi faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar haqida tushunchaga ega bo'ladi.



Biznes o'yinlarimizda ishtirok etishni istasangiz, biz bilan bog'laning yoki O'zbekistondagi loyihamiz haqida ko'proq ma'lumot olishni istasangiz web-sahifamiz va Facebook sahifamizga tashrif buyuring!